

O'ZBEKISTONDA O'LIM JAZOSI QAYTA TIKLANISHI KERAKMI?**Xurramov Normurod**

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs A-potok 1-guruh talabasi.

normurodxurramov30@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174674>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'lim jazosi, uning jinoyatni kamaytirish, qamoq jazosiga nisbatan kam xarajat yoki yo'qligi, inson huquqlariga bog'liqligi, bu jazoga oid bir qancha statistikalar, ushbu jazoni qo'llayotgan davlatlar tajribalari va ulardagi jinoyat darajasi haqida hamda muallifning O'zbekistonda o'lim jazosi qayta tiklanishi kerak yoki kerak emasligi to'g'risidagi fikri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'lim jazosi, huquqiy-demokratik davlat, umrbod qamoq jazosi, demokratiya, ratifikatsiya.

SHOULD THE DEATH PENALTY BE REINSTITATED IN UZBEKISTAN?

Abstract. This article discusses the death penalty, its reduction in crime, whether or not it costs less than imprisonment, its relevance to human rights, some statistics about this punishment, the experiences of countries that use this punishment and the level of crime in them, and the author's opinion about whether or not the death penalty should be reinstated in Uzbekistan.

Keywords: death penalty, legal democratic state, life imprisonment, democracy, ratification.

СТОИТ ЛИ ВОССТАНОВИТЬ СМЕРТНУЮ КАЗНЬ В УЗБЕКИСТАНЕ?

Аннотация. В этой статье обсуждается смертная казнь, снижение уровня преступности, стоит ли она дешевле тюремного заключения, ее значимость для прав человека, некоторые статистические данные об этом наказании, опыт стран, которые применяют это наказание, и уровень преступности в них, а также мнение автора о целесообразности восстановления смертной казни в Узбекистане.

Ключевые слова: смертная казнь, правовое демократическое государство, пожизненное заключение, демократия, ратификация.

Kirish

Huquqiy-demokratik davlat qurish yo'lida jinoyat ishlarini tartibga solish har bir demokratik davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Unga ko'ra, jinoyat sodir etilishi darajasini tushirish, jinoyat sodir etganlikda gumonlanayotgan shaxslarga adolatli odil sudlovni amalga oshirish yuqorida aytib o'tilgan maqsad yo'lidagi asosiy vazifalar sifatida qaraladi.

Jamiyatda ushbu adolatni o'rnatishda o'lim jazosining ahamiyati haqida bir necha o'n yillar mobaynida bahs-munozaralar davom etib kelmoqda. Bu jazo qo'llanilishining tarafdorlari ta'kidlashicha, ushbu jazoni qo'llash jinoyatni oldini olish, qurbonlar va ularning oilalariga adolatni ta'minlash, jinoyatchini qilgan qilmishiga yarasha jazolash uchun zarur hisoblanadi.

Boshqa tomondan, bu amaliyotga qarshilar esa, bu jazo axloq qoidalariga to'g'ri kelmasligini, jinoyatni kamaytirish vositasi sifatida samarasiz va begunoh odamlarni qatl qilish xavfi mavjudligini aytishadi. Bu mavzuning dolzarbligini davlatlar miqyosida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ko'plab davlatlar o'lim jazosidan voz kechgan bo'lsa, qolganlarida hali ham bu jazo mavjud.

Aniqroq qilib aytganda, "Amnesty International" inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro nodavlat, notijorat tashkilotining 2022-yilda chiqarilgan "Death Sentences and executions 2022" hisobotiga ko'ra, hozirda 112 ta davlat o'lim jazosidan voz kechgan bo'lsa 55 ta davlatda ushbu jazo saqlanib qolgan¹. O'zbekiston ham o'lim jazosidan voz kechgan davlatlardan hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-moddasi 2-qismida "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi", deya ta'kidlangan².

Shunday ekan, o'lim jazosini qo'llashdan oldin uning jamiyatda adolat o'rnatishda, jinoyatlarni oldini olishda qanday ahamiyat kasb etishini, inson huquqlariga zid yoki zid emasligini aniqlash zarur. Quyida biz o'lim jazosining turli xil tomonlari va ushbu jazoni qo'llash yoki qo'llamaslik haqida so'z olib boramiz.

Asosiy qism

O'lim jazosini tahlil qilar ekanmiz, avvalo bu jazoning turli xil jihatlarini ko'rib chiqmog'imiz lozim. Ushbu jazo tarafdorlari o'zlarining eng asosiy argumentlari sifatida o'lim jazosi jinoyat sodir etilishini kamaytirishi hamda bu jazoning umrbod qamoq jazosiga nisbatan ancha kam xarajat ekanligi ta'kidlashadi.

Ushbu jazoga qarshilar esa, o'lim jazosi va kamaygan jinoyatlar sonida to'g'ri proporsional bog'lanish yo'q ekanligini, aksincha o'lim jazosi mavjud bo'lsa ham jinoyat sodir etilishi oshayotganligini, o'lim jazosi orqali begunoh insonlar jazolanishi va bu jazo insonlarning eng oliy inson huquqlaridan biri bo'lmish ularning tabiiy huquqini buzishini aytishadi.

Aslidachi, o'lim jazosi jinoyatni kamaytiradimi? Ushbu jinoyat xarajatlari umrbod qamoq jazosi berilgan shaxslarni saqlash uchun ishlatiladigan mablag'lardan kammi?

O'lim jazosi tufayli inson huquqlari buzilyabdimi?

¹ Amnesty International. "Death sentences and executions 2022"//Amnesty International. -2022. -No 1. -B.41.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir//<https://lex.uz/docs/-6445145>

Birinchidan, o'lim jazosi insonlarning ko'plab qonun hujjatlarda belgilab o'tilgan tabiiy huquqlaridan biri bo'lmish yashash huquqini poymol qiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasiga ko'ra, har bir inson **yashash**, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi belgilab qo'yilgan³. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 6-moddasida esa "Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu qonun bilan muhofaza etiladi.

Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi", deb ta'kidlangan⁴. Shuning uchun ham jinoyat sodir etgan shaxsni o'lim jazosi bilan jazolash uning inson huquqlarini buzilishiga olib keladi. Ammo, boshqa tomondan olib qaraganda, odam o'ldirgan shaxslar ham qurbonning yashash huquqini buzadi. Bunday holatda, albatta, ularga nisbatan og'irroq chora ko'rish, ya'ni o'lim jazosini ta'yinlash kerak emasmi degan savol tug'iladi. Bizning fikrimizcha, shaxs boshqa bir shaxsga nisbatan suiqasd amalga oshirib, uni o'ldirgan taqdirda ham unga nisbatan o'lim jazosi belgilanmasligi kerak.

Chunki, bir shaxs boshqasining yashash huquqini tortib oldi degani, biz ham uning yashash huquqini tortib olishimiz shart ekanligini anglatmaydi. Zero, jaholatga qarshi jaholat bilan kurashib bo'lmaydi. Jinoyat va jazoni hal etish masalasida inson hayoti ustuvor bo'lishi lozim.

Shuning uchun ham jinoyat sodir etgan shaxsni jazolashdan ko'zlangan maqsad jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish emas, balki uni tarbiyalash ekanligi O'zbekiston Respublikasi Jinoat kodeksida bejiz belgilanmagan⁵. Gap o'rnida tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'lim jazosi birinchi marta eramizdan avvalgi XVIII asrda Bobil hukmdori Hammurapi qonunlarida o'z aksini topgan va 25 ta turli xil jinoyatlar uchun jazo sifatida qo'llanilgan.

Miloddan avvalgi VII asr Afina qonunlarida ham har qanday turdagi jinoyat uchun o'lim jazosi belgilangan bo'lib, jazo tiriklayin yoqib yuborish, o'lgunicha kaltaklash, osish, cho'ktirish usullar orqali amalga oshirilgan.

Milodiy XVI asrda, Genrix VIII davrida, Buyuk Britaniyada 72 mingga yaqin odam o'lim jazosi natijasida qatl etilganligi taxmin qilinadi. Shunga qaramay, keyingi 2 asr mobaynida Britaniyadagi jinoyatlar soni oshishda davom etadi. 1700-yillarga kelib, Buyuk Britaniyada, 222 xil turdagi jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan bo'lib, xatto o'g'irlik, daraxt kesish va quyon inini tunash ham o'lim jazosiga sabab bo'lgan⁶.

³ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi//<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

⁴ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt//<https://lex.uz/docs/-2640479#-5582486>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi//<https://lex.uz/docs/-111453>

⁶ Death Penalty Information Center. "History of the Death Penalty"//<https://deathpenaltyinfo.org/curriculum/high-school/about-the-death-penalty/history-of-the-death-penalty>

Tarixda bunday ko'p miqdordagi jinoyatlar uchun o'lim jazosini belgilanganligi va juda ham ko'plab insonlar ushbu jazo orqali qatl etilganligidan kelib chiqqan holda shuni ayta olamizki, inson huquqlari o'tmishda yaxshi rivojlanmagan.

Vaqt o'tishi hamda demokratik davlatlar yuzaga kelishi va mavjud demokratik davlatlarda demokratiyaning rivojlanishi bilan inson huquqlari dolzarb mavzulardan biriga aylangan va ikkinchi jahon urushidan so'ng 1948-yilga kelib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi bilan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan. Inson huquqlari deklaratsiyasini ratifikatsiya qilganlaridan so'ng, ko'plab Yevropa davlatlari o'lim jazosidan voz kechishdi. O'zbekiston ham Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ratifikatsiya qilganidan so'ng, 2005-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2005-yildagi PF-3641-son farmoniga asosan o'lim jazosidan voz kechdi.

Ushbu farmonda yozilishicha, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'lim jazosini nazarda tutuvchi 30 dan ortiq moddalardan iborat bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining 1994-yilgi Jinoyat kodeksida bunday moddalar soni 13, 1998-yilda 8, 2001-yilda esa 4 tagacha kamaytirildi. 2003-yilda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng, faqat ikki turdagi jinoyat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan⁷.

Ikkinchidan, ko'plab insonlar o'lim jazosini qo'llash jinoyatchilik darajasini kamaytiradi deb o'ylaydi. Biroq, bu tushuncha xato hisoblanadi. AQSH da qilingan tadqiqotlardan biriga ko'ra, 2004-yilda amerikada o'lim jazosi mavjud bo'lgan shtatlarda har 100,000 kishiga o'rtacha 5.71 ta, o'lim jazosi mavjud bo'lmagan shtatlarda esa har 100,000 kishiga o'rtacha 4.02 ta qotillik jinoyati sodir etilganligi aniqlangan⁸.

Kanadada o'lim jazosidan voz kechilganidan 27 yil o'tganidan so'ng, ya'ni 2003-yilga kelib, qotillik darajasi 1975-yilga nisbatan 44% ga kamaygan⁹. Bundan kelib chiqib shuni ayta olamizki, o'lim jazosi jamiyatni xavfsiz joy emas, balki johil joy qilib yubora oladi. Aksincha, o'lim jazosidan voz kechish jinoyatlarni kamaytiradi va jamiyatni xavfsizroq bo'lishiga sabachi bo'ladi. Yana bir misol sifatida, o'lim jazosi belgilangan davlatlarda korrupsiya holati kamaymaganligini, aksincha, o'lim jazosi qo'llanmagan davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda ijobiy ko'rsatkichlarga erishganligini aytishimiz mumkin.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2005-yildagi PF-3641-son farmoni// <https://lex.uz/docs/-1264447>

⁸ Amnesty International. "Does the death penalty deter crime?"//Amnesty International. -2008.

⁹ Amnesty International. "Does the death penalty deter crime?"//Amnesty International. -2008.

Masalan, korrupsiya uchun o'lim jazosi belgilangan Xitoyda korrupsiya holatlari ko'payib, Transparency International xalqaro indeksi bo'yicha Xitoy 2018 yilda dunyoda 167 davlatdan 39-o'rinni egallagan¹⁰. Ushbu ko'rsatkich korrupsiyaga qarshi kurashishda jazoning og'irligi yordam bera olmasligini ifodalaydi.

Aksincha korrupsiyaga qarshi kurashishda dunyo reytingida yuqori o'rinni egallagan Finlyandiya va Daniya davlatlarida o'lim jazosi mavjud bo'lmasa-da, korrupsiya ko'rsatkichlari past. Shuningdek, Filippinning o'lim jazosiga aloqador tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu davlatda o'lim jazosidan voz kechilganligiga qaramasdan, keyinchalik giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish uchun qayta tiklangan.

Filippin hukumati bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yil 1-iyulidan 2018-yil 30-noyabriga qadar giyohvand moddalar savdosiga qarshi o'tkazilgan amaliyotlarda 5050 kishi qatl qilingan. Human Rights Watch tashkiloti bu raqam kamida 12000 nafarga teng ekanini ta'kidlaydi.

Filippin huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qayd etishicha, o'n yildan beri norkatrafikka aloqador jinoyatlar uchun oliy jazo tayinlab kelinayotgan bo'lsa ham, o'lim jazosi giyohvand moddalar savdogarlarini mutlaqo qo'rquvga solmayapti. Harm reduction International tadqiqot guruhi tahlilchisi Jiada Jirellining ta'kidlashicha, "mazkur jinoyat uchun qatl etilganlarning aksariyati kurer, ya'ni tashuvchi hisoblanadi. Giyohvand moddalar savdosidagi kurerlarni osongina almashtirish mumkin.

Ularni yo'q qilish narkobiznes modeliga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi"¹¹. Ya'ni Filippinda o'lim jazosining qayta tiklanishi giyohvand moddalar savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni kamayishiga yordam bermadi, aksincha jinoyatchilik soni o'sib, qatl etilgan insonlar ko'paydi.

O'lim jazosining asl maqsadi jinoyatlarni ko'payishini oldini olish bo'lsa, avvalo, insonlar ma'lum jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilanganligi haqida bilishi kerak. Ya'ni ular qilmoqchi bo'lgan ishlarining huquqiy oqibatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Ammo, jamoat va "bo'lajak" jinoyatchilar bu haqida ma'lumotga ega bo'lmay, qilgan jinoyati uchun o'lim jazosi mavjudligini bilmasdan jinoyat sodir etishi mumkin.


Tadqiqotlardan biriga ko'ra, o'lim jazosiga mahkum qilinganlarning 17.8% i hech qachon maktabga bormagan, 51.1% i maktabni tugatmagan, 31.2% i maktabni yoki maktab va universitetni tugatgan¹².

¹⁰ B.Xo'jayev. O'zbekistonda o'lim jazosini tiklash kerakmi?//Kun.uz.-2019.

¹¹ B.Xo'jayev. O'zbekistonda o'lim jazosini tiklash kerakmi?//Kun.uz.-2019

¹² Vidhi Aagaz. "Does the Death Penalty reduces Crime?"//International journal of integrated review.-2021.-No 2. - B.210.

Image 1:- Educational Profile of prisoners sentenced to death



Manba: International Journal of Intergrated Law Review. Volume 2. Issue 1. -2021. -P.210

Bundan kelib chiqqan holda shuni ayta olamizki, ma'lum davlatda o'lim jazosi mavjud bo'lsa-yu, lekin uning fuqarolari o'lim jazosini qaysi jinoyatlar uchun qo'llanilishini yoki umuman o'lim jazosi mavjudligini bilmasa, o'lim jazosining ko'pchilik aytadigan jinoyatlarni oldini olish funksiyasi to'g'ridan to'g'ri yo'qoladi. O'lim jazosi ta'yinlanganlarning 17.8% i hech qachon maktabga bormaganliklari va 51.1 % i maktabni tugatmaganliklarini hisobga olsak, ular umuman o'lim jazosi mavjudligi va qaysi jinoyatlar uchun qo'llanilishi haqida bilmaslik ehtimolliklari yuqori. Bu esa o'lim jazosini qo'llash jinoyatlarni kamaytirish uchun samarasiz ekanligini tasdiqlovchi yana bir dalillardan biridir.

Uchinchidan, o'lim jazosi natijasida begunoh shaxslar ham qatl etilishi mumkin. Death Penalty Information Center (DPIC) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Amerikada 1973-yildan beri 197 ta inson noto'g'ri ayblanib, o'lim jazosiga mahkum etilgan¹³. AQSH 1900-1985-yillar mobaynida esa, o'lim jazosi 350 nafar aybsiz shaxsga nisbatan ijro etilganligini rasman tan olgan. Keyingi 30 yil davomida bu jazoga mahkum etilganlardan 121 nafarining aybsizligi aniqlanib, o'lim kameralaridan ozod qilingan. 23 nafar shaxsning o'lim jazosi ijro etilishiga bir qancha daqiqa qolgandagina aybsizligi aniqlangan va ijro to'xtatilgan¹⁴. Bundan kelib chiqqan holda shuni ayta olamizki, o'lim jazosi ko'plab begunoh insonlarni hayotiga zomin bo'lgan.

Agarda ushbu begunoh shaxslar ozodlikdan mahrum etish kabi boshqa jazolarga tortilganda keyinchalik aybsizligi isbotlanib, o'z oilalariga qaytishlari mumkin edi. Ammo, o'lim jazosi qo'llanilgan joyda, mahkumlarni ortga qaytarishning ilojisi yo'q.

To'rtinchidan, o'lim jazosini qo'llash qamoq jazosiga sarflanadigan xarajatlarni tejab qolmaydi.

¹³ Death Penalty Information Center. "Innocence"//<https://deathpenaltyinfo.org/policy-issues/innocence>

¹⁴ B.Xo'jayev. O'zbekistonda o'lim jazosini tiklash kerakmi?//Kun.uz.-2019

AQSHning qamoqxonada saqlanuvchi maxbuslar soni taxminan 2.2 mln atrofida, ammo ularning atigi 3,000 ga yaqini o'lim jazosiga mahkum etilgan. Agarda o'lim jazosiga mahkum qilinganlarning barchasi qatl etilib yuborilganda ham ular uchun sarflanayotgan xarajatlar qolgan 2.2 mln mahbusga sarflanayotgan xarajatlar oldida deyarli farq qilmas edi¹⁵. Aslida ham, inson hayoti bilan bog'liq masalalar moliyaviy omillar orqali hal etilmasligi kerak. Zero, inson hayoti va uning yashash huquqi inson huquqlarining ajralmas bo'lagidir va har bir inson ushbu huquqlardan foydalanishga haqlidir. Faktlarga qaytadigan bo'lsak, qamoqxonalarda o'rtacha har bir mahbus uchun yiliga \$60,000-70,000 miqdorida mablag' sarflanadi.

Ammo, o'lim jazosi ham qimmatga tushadi. Birinchi navbatda, o'lim jazosi ishlarini ko'rib chiqish, ko'p mablag' talab qiladi; sudlar ham boshqa turdagi ishlarga qaraganda ko'proq sarf-xarajat qilishiga to'g'ri keladi. Bir tadqiqotga ko'ra, o'lim jazosiga oid ishlarning sudlar uchun xarajatlari boshqa turdagi ishlarni ko'rib chiqish uchun ketgan xarajatlardan 4 barobar ko'proq va bu raqam taxminan \$1,500,000 atrofida bo'ladi.¹⁶ Shuningdek, o'lim jazosini ko'rib chiqish ishlari juda uzoq muddat davom etib, hatto, 10-15 yilga qadar cho'zilishi mumkin. Bu muddat davomida, shubhasiz, ishni ko'rib chiqish uchun xarajatlar oshadi va davlatdan ham ayblanuvchidan ham katta miqdordagi mablag'lar talab qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirda o'lim jazosini qo'llanishi jinoyatchilik kamayishiga olib kelishi haqida muhokamalar avj ola boshlagan. Biz bu jazoning turli jihatlarini tahlil qilgan holda shuni ayta olamizki, o'lim jazosi, birinchi navbatda, inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lgan yashash huquqini poymol etadi. Ikkinchidan esa, ko'pchilik jinoyatni kamaytirishda samarali usul sifatida qaraydigan bu oliy jazo aslida jinoyatchilik darajalarini pasaytirmadi, aksinchi oshirdi. Masalan, AQSH da o'lim jazosi qo'llanib kelinishiga qaramasdan so'nggi 30-40 yil ichida AQSHda jinoyatchilik 7-8 barobar oshgan. Shuningdek, AQSH ning o'lim jazosi qo'llanadigan shtatlarida o'lim jazosi qo'llanilmaydigan shtatlariga qaraganda jinoyatchilik darajasi balandroq. Korrupsiya masalalariga yuzlanadigan bo'lsak, Xitoy korrupsiya uchun o'lim jazosini joriy etganligiga qaramasdan, unda korrupsiya holatlari kamayib qolmadi. Aksincha, o'lim jazosi mavjud bo'lmagan Norvegiya, Finlandiya kabi davlatlar korrupsiya holatlari kuzatilishi bo'yicha eng past natijalar qayd etib, dunyo reytingida yuqori pog'onalarda boradi.

Shuningdek, o'lim jazosini qo'llash ko'plab insonlarni begunoh qatl etilishiga sabab bo'ldi.

¹⁵ Amnesty International. "Does the death penalty deter crime?"//Amnesty International. -2008.

¹⁶ Jeffrey Miron. "The financial Implications of the Death Penalty"//Cato Institute. -2023.

Sud xarajatlari esa, qamoq jazosi beriladigan ishlarnikidan ko'ra o'lim jazosi ishlarida ko'proq ekanligi yana bir bor bu jazoni foydali jihatlari yo'q ekanligini ko'rsatadi. Aslida, o'lim jazosining bor yoki yo'qligi jinoyatchilik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Zero, Chezare Bekkaria aytganidek, "Jinoyatchilik oldini olishda jazoning shavqatsizligi emas, balki uning muqarrarligi ko'proq ahamiyatga ega". Qisqa qilib aytganda, o'lim jazosini qo'llash davlat uchun ham insonlar uchun ham hech qanday manfaat bermaydi. Aksincha, davlatdagi jinoyatchilik hech qanday ta'sir ko'rsatmay, davlatdan, fuqarolardan ko'p mablag' talab qilib, ba'zi hollarda aybsiz insonlarning o'limiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu oliy jazoni amaliyotdan chiqarib tashlamog'imiz zarurdir.

Zero, jaholatga qarshi jaholat bilan emas ma'rifat bilan kurashmog'imiz lozim. Insonparvarlik g'oyalari azaldan xalqimizda ulkan qadriyat sifatida ulug'langanini bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida keltirilgan quyidagi parchadan bilib olishimiz mumkin: "...yomonga jazo berish — garchi qonun va siyosat yuzasidan to'g'ri bo'lsa ham, ammo adolatli hukmdorning asl yo'li — shavqat-muruvvatdir. Bir shaxs o'limga qanchalik sazovor bo'lsa ham, uning o'limini orqaga surish, bu haqda shoshmaslik yaxshi..." Shunday ekan, bizning fikrimizcha, O'zbekistonda o'lim jazosi qayta tiklanmasligi kerak. Jinoyatga qarshi kurashish uchun esa boshqa yo'llardan bormog'imiz lozim.

REFERENCES

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi// <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt//<https://lex.uz/docs/-2640479#-5582486>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir// <https://lex.uz/docs/6445145>
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi//<https://lex.uz/docs/-111453>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2005-yildagi PF-3641-son farmoni// <https://lex.uz/docs/-1264447>
6. Amnesty International. "Death sentences and executions 2022"//Amnesty International. - 2022. -No 1. -B.41.
7. Amnesty International. "Does the death penalty deter crime?"//Amnesty International. - 2008.
8. B.Xo'jayev. O'zbekistonda o'lim jazosini tiklash kerakmi?//Kun.uz.-2019.
9. Death Penalty Information Center. "History of the Death Penalty"// <https://deathpenaltyinfo.org/curriculum/high-school/about-the-death-penalty/history-of-the-death-penalty>

10. Death Penalty Information Center. "Innocence"// <https://deathpenaltyinfo.org/policy-issues/innocence>
11. Jeffrey Miron. "The financial Implications of the Death Penalty"//Cato Institute. -2023.
12. Vidhi Aagaz. "Does the Death Penalty reduces Crime?"//International journal of integrated review.-2021.-No 2. -B.210.